



XALQ DEPUTATLARI PASTDARG‘OM TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 27-oktabr VII-16-115-7-101-K/25 Pastdarg‘om tumani

2025-yil III chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi “Tashabbusli byudjet” jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 30-iyuldagi 01-33/600–sonli xatini hamda tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiya xulosalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga asoslanib, xalq deputatlari Pastdarg‘om tumani Kengashining o‘n oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Pastdarg‘om tumani hokimligining tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalaridan shakllangan mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil III chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan 1075,0 (bir milliard yetmish besh) mln. so‘m mablag‘ “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasiga o‘tkazish uchun ilovaga asosan tuman hokimligiga ajratilsin.
3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy byudjetining rejasiga tegishli o‘zgartirish

kiritish va tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Amirov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (G‘.Berdiyev) ajratilgan mablag‘larni “Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasida belgilangan tartibda o‘tkazilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi B.Ochilov va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Pardayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



RAXMANOV SHERZOD
SHUXRATOVICH

Xalq deputatlari Pastdargʻom tumani
Kengashining
2025-yil 27-oktabrdagi
VII-16-115-7-101-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil III chorak daromadlar rejasini
oshirib bajarilgan qismi hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar va
ajratiladigan mablagʻlar miqdori**

T/r	Mablagʻ ajratilgan tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Ajratilgan mablagʻ miqdori (ming. soʻm)	Asos
Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil III chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi:			3 571 668	x
1.	Tuman hokimligi	“Fuqarolar tashabbusi” jamgʻarmasiga	1 075 000	Tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimining xati
Jami ajratilgan mablagʻ:			1 075 000	x
Qoldiq			2 496 668	x